

AYRIM XORIJIY DAVLATLAR JINOYAT QONUNCHILIGIDA FIRIBGARLIK UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI

Primov Baxtiyor Olim o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi, kriminologiya
va korrupsiyaga qarshi kurashish" kafedrası o'qituvchisi, yu.f.f.n

E-mail: baxtiyorprimov@inbox.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11393769>

AQSHda firibgarlik va moliyaviy firibgarliklarni zodagonlar jinoyati deb hisoblashadi. Bunga sabab qilib, bu turdagi jinoyatlarni amalga oshirish uchun insondan puxta o'ylangan aql va taktika talab qilinishini keltirishadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida qonunchilik tizimi ikkiga bo'lingan holda mamlakat hududida amal qiladi. Federal qonunchilik barcha shtatlar uchun majburiy bo'lsa, shtat qonunchiligi faqatgina ma'lum bir hudud doirasida ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Firibgarlik foyda olish uchun yolg'on yoki insofsizlikdan foydalanishni o'z ichiga oladi. Shtatlar va federal qonunchilikka ko'ra firibgarlikning ko'plab turlari jinoiy deb topilgan. Federal qonunga ko'ra firibgarlikni o'ziga yoki boshqa bировga foyda keltirish uchun ishlatiladigan har qanday qasddan yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumot berishda ifodalanadi¹. O'zbekiston qonunchiligidan farqli ravishda AQSh qonunchiligida faqatgina yolg'oning o'zi firibgarlik deb topish uchun asos bo'ladi. Bunda ishonchni suiiste'mol qilish ham aldovning bir turi sifatida baholanadi. Shuningdek, firibgarlik ortidan moddiy manfaatdor bo'lish nafaqat aybdorning o'zi, balki boshqa shaxslarning ham manfaati yotadi. AQSh Federal qonuni 18-jinoyatlar va jinoiy protsessual harakatlar bo'limi birinchi qismi (jinoyatlar)ga ko'ra, AQShda firibgarlikni turlari bir nechta tashkil qiladi. Bular: simli, radio yoki televizor orqali firibgarlik; bank firibgarligi; sog'liqni saqlash sohasidagi firibgarlik; qimmatli qog'ozlar va tovarlardagi firibgarlik; xorijiy mehnat shartnomasidagi firibgarlik, shaxsiy ma'lumotlar va hujjatlardagi firibgarlik, aloqa qurilmalaridagi firibgarlik, kompyuter vositalaridagi firibgarlik kabi turlarga bo'lingan.

Federal qonunchilikning 1030 (4) paragrafida kiberfiribgarlik uchun ham maxsus terminalogiya ishlatilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Unga ko'ra qasddan yoki firibgarlik niyatida kompyuterga ruxsatsiz kirish yoki ruxsat berilgandan oshib ketgan holda firibgarlikni davom ettirsa va uning 1 yillik qiymati 5000\$ ko'p bo'lib ketsa javobgarlikka tortiladi². Demak, qilmish ma'lum bir darajadagi zararni bermasa, unda javobgarlikka tortish uchun asos bo'lmaydi.

Model Jinoyat kodeksi (yoki MPC) Amerika Huquqiy Instituti tomonidan yig'ilgan namunaviy kodeks bo'lib, u birinchi marta 1962-yilda e'lon qilingan. MPC e'lon qilingandan so'ng, ko'plab shtatlarning jinoyat kodekslarida muhim islohotlar amalga oshirildi va hozirgi kunga qadar ko'plab shtatlarning jinoyat kodeksi aynan MPC asosida. MPC bir nechta qismdan iborat: (I) javobgarlikning umumiy tamoyillari; (II) muayyan huquqbuzarliklarning ta'riflari. MPCning ayanan shu ikkita qismi tarixiy ahamiyatga ega. Sababi, bu yerda jinoyatlar tahlil qilingan holda bir biridan farqli jihatlari o'rganiladi.

Ushbu kodeksning 223.3-moddasida o'zgarar mulkini aldov yordamida talon-taroj qilish tushunchasi keltirib o'tilgan. Unga ko'ra inson o'zgarar mulkini qasddan aldov yordamida

¹ Mark Theoharis, *Fraud & Financial Crimes*, published by NOLO, 06.03.2023 p2.

² <https://uscode.house.gov/view.xhtml?path=/prelim@title18&edition=prelim>

egallab olsa, unda u aybdor shaxs sifatida ko‘riladi. Shuningdek, quyidagilardan birini qasddan sodir etsa: a) qonun mazmuni, o‘z niyati yoki boshqa holatlari yuzasida noto‘g‘ri taassurot yaratish yoki kuchaytirish. Va‘dasini bajarish maqsadida aldash agarda shaxs kelgusida bu va‘dasini bajarmasa, faqatgina shuning o‘zi fakt bo‘lib hisoblanmaydi; b) boshqalarning ma‘lumot to‘plashiga to‘sqinlik qilish orqali bitim bo‘yicha qaror qabul qilishga ta‘sir qilish va boshqalar³.

Germaniya Jinoyat kodeksi 1998-yil yangi tahrirda qabul qilingan. Kodeksning 22-bo‘limi “Firibgarlik va o‘zlashtirish” deb nomlangan. Bo‘limning 263-moddasi firibgarlikning umumiy xususiyatlarini ochib bergan: “Kimki, o‘zi yoki uchinchi shaxs uchun qasdan noqonuniy moddiy manfaatlar olish niyatda, boshqa shaxsning mol-mulkiga yolg‘on da‘volar bilan xatoga yo‘l qo‘yish yoki uni saqlab qolish yoki haqiqiy faktlarni buzib ko‘rsatish yoki yo‘q qilish yo‘li bilan zarar yetkazsa, besh yildan ortiq bo‘lmagan muddat bilan ozodlikdan mahrum etiladi⁴. O‘zbekiston qonunchiligida ta‘rifi keltirilgan firibgarlik tushunchasidan farqli ravishda Germaniya jinoyat qonunchiligida firibgarlik faqatgina jinoyat obyektini hisoblangan aldash orqali sodir etiladi. Ishonchni suiiste‘mol qilish esa aldashni bir turi deya qaraladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi JK da firibgarlikning faqatgina bir turi berilgan va aynan bu norma orqali barcha firibgarliklar kvalifikatsiya qilinadi. Germaniya JKda firibgarlikning quyidagi turlari mavjud:

kompyuter firibgarligi, subsidiya bilan bog‘liq firibgarlik, investitsiya firibgarligi, sug‘urta firibgarligi, aldov yo‘li bilan foydaga ega bo‘lish, kredit faoliyatiga bog‘liq firibgarlik, sportdagi garov bilan bo‘g‘liq firibgarlik, professional sport o‘yinlarini manipulatsiya qilish. O‘zlashtirishga oid qismida: o‘zlashtirish, oylik va ish haqqilarni ushlab qolish, kredit karta va cheklardan qonunga xilof ravishda foydalanish.

Germaniyada ham, xuddi AQSh singari kompyuter firibgarligiga JK 263a-moddasida alohida e‘tibor qaratilgan. Ananaviy firibgarlikdan farqli kompyuter yordamida ruxsatsiz ma‘lumotlarni qo‘lga kiritish, kompyuter yordamida noto‘g‘ri va to‘liq bo‘lmagan ma‘lumotlardan foydalanish bilan ifodalanadi.

Germaniya qonunchiligida firibgarlik aldash orqali sodir etiladigan bo‘lsa, ishonchni suiiste‘mol qilish orqali esa o‘zlashtirish sodir etiladi. Shu nuqtayi nazardan ishonchni suiiste‘mol qilish bilan bog‘liq jinoyatlar alohida normalarni nazarda tutadi. 266-modda (o‘zlashtirish)ga ko‘ra: “ kimki o‘ziga berilgan qonuniy yoki o‘zgarar mol-mulkini tasarruf etish yoki boshqalar uchun majburiy bo‘lgan bitimlar tuzishdagi vakolatni suiiste‘mol qilsa yoki kimki qonun, hokimiyat organlari, shartnoma yoki fudisiar tomonidan o‘zga shaxsning mol-mulkini qo‘riqlash bo‘yicha yuklatilgan majburiyatalarni bajarmaslik, va bu orqali manfaatdor shaxsga zarar yetishi o‘zlashtirish deb topiladi va besh yildan ko‘p bo‘lmagan ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima bilan jazolanadi”⁵.

Bundan ko‘rinadiki, Germaniya jinoyat qonunchiliga aldash va ishonchni suiiste‘mol qilish bir birida ajratilib alohida jinoyat normasining obyektiv tomoni bo‘lib kelmoqda.

Fransiya Jinoyat kodeksi 3-bo‘limi “Firibgarlik va unga o‘xshash jinoyatlar” deb nomlanadi. Aynan shu bo‘limning 313-1-moddasida firibgarlikka ta‘rif berilgan: “firibgarlik yo‘li bilan

³ Model Penal Code, Philadelphia, PA. The American law institute 1985,p-177// URL:<https://www.legal-tools.org/doc/08d77d/pdf>

⁴ https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html#p2467

⁵ German Criminal Code, // URL https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html#p2480

egallash bu vakolatni suiiste'mol qilish yoki noqonuniy haraktlar orqali jismoniy yoki yuridik shaxsni soxta nom yoki haloyoliy vakolatlari bilan aldash, shu orqali shaxsni chalg'itib, mablag'larini yoki har qanday mulklarini topshirish to'grisidagi majburiyatlarni vujudga keltiradigan yoki bekor qiladigan harakatni amalga oshirishga rozi qilish"⁶. Ushbu harakatlar uchun 5 yilgacha muddatda ozodlikda mahrum qilish va 375 000 yevro miqdorda jarima belgilangan. Belgilangan jazo firibgarlik bo'yicha sodir etilgan qilmishlarning og'irlashib borishiga qarab ortib boradi.

Firibgarlikning umumiy jihatida obyektiv tomoni aldash va ishonchni suiiste'mol qilish mavjud bo'lsa, subyektiv tomondan maqsad sifatida nafaqat mulkni qo'lga kiritish, balki jabrlanuvchi tomonidan majburiyatlar yuzasidan muayyan harakatlarni sodir etishda ham nomoyon bo'ladi.

Fransiya Jinoyat kodeksi 313-5-moddasida mayda firibgarlik degan tushunchani ham ko'rish mumkin unga ko'ra: "Firibgarlik bu to'lovni to'lashga qodir emasligini bilgan yoki to'lamaslikka qaror qilgan holda quyidagilardan birini amalga oshirish:

oziq-ovqat yoki ichimliklar sotiladigan binolarda oziq-ovqat yoki ichimliklarga buyurtma berish;

10 kundan oshmaydigan muddatda bir yoni bir nechta xonali ija uylaridan samalari foydalanish;

professional disterbyuter tomonidan avtotransport vositasi baklari qisman yoki to'liq to'ldirilgan yonilg'i yoki moylash materiallariga buyurtma berish;

taksi yoki ijaraga olingan transport vositasidan foydalanish olti oylik qamoq va 7500 yevro miqdorida jarima bilan jazolanishga sabab bo'ladi.

O'ylaymizki, bu firibgarlik turini o'zbek qonunchiligiga joriy qilish hozirgi kunda ko'p tarqalib borayotgan qilmish uchun javobgarlik belgilashga asos bo'ladi. Sababi, bizda bunday xatti-harakatlar uchun javobgarlik alohida ko'rsatib o'tilmagan. O'zbekiston Respublikasi JK ko'ra shaxsga nisbatan sodir etilgan har qanday firibgarlik (qiymati ahamiyatsiz) jinoiy javobgarlikka toriladi. Lekin korxonalar, tashkilotlarga nisbatan sodir etilgan firibgarlik esa umumiy qiymati BHM 30 baravridan oshmasa firibgarlik nisbatan ma'muriy jazo qo'llaniladi. Bunday jismoniy shaxs va yuridik shaxslarga yetkazilgan firibgarlik uchun jazoning keskin farq qilishi adolatsizlik deb o'ylaymiz. Shu nuqtayi nazardan Fransiya tajribasi asosida Ma'muriy javobgarlik to'grisidagi kodeksning 61³-modda sifatida o'zgaralar mulkini oz miqdorda talon-taroj qilish (maishiy firibgarlik) normasini kiritish kerak.

Angliyada firibgarlik qilmishini tartibga solish uchun alohida qonun qabul qilingan. 2006-yil qabul qilingan "Firibgarlik to'grisida"gi qonunga ko'ra firibgarlik shaxs tomonidan yolg'on vakillik orqali, ma'lumotlarni oshkor qilmaslik orqali va lavozimini suiiste'mol qilgan holda sodir etiladi⁷. Bularning har biriga qisqacha to'xtalib o'tsak. Qonunga ko'ra yolg'on vakillik qilish insofsizlarcha va qasddan o'zi yoki boshqa shaxs uchun daromad olishni niyat qilgan yoki boshqalar mulkiga zarar yetkazishni yoki zarar yetkazish xavf ostiga qo'ygan holda sodir etiladi. Firibgarlikni sodir etgan shaxsni yolg'on vakil deb topish uchun vakil haqiqatga to'g'ri kelmagan yoki chalg'ituvchi ekanligi shaxs tomonidan ataylab uyushtirilgan bo'lishi kerak. Bunda ikki jihat ya'ni insofsizlarcha hamda qasd muhim ahamiyat kasb etadi.

⁶ John Rason, Penal Code, University of Cambridge. p71 // https://www.equalrightstrust.org/ertdocumentbank/french_penal_code_33.

⁷Fraud act 2006// <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/35/section/1>

Firibgarlikning keyingi turi bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik deganda qasddan va insofsizlarcha ma'lumotlarni yashirish tushuniladi.

So'nggi turi hisoblangan mansab mavqeni suiiste'mol qilish orqali firibgarlik sodir etish 3 usul orqali amaga oshiriladi: muayyan vakolatga ega bo'lgan va boshqalarning moliyaviy manfaatlarni himoya qilish yoki unga qarshi harakat qilmasligi kerak bo'lgan shaxs tomonidan mansab mavqeyi buzilgan bo'lsa; insofsizlarcha va qasdan egallab turgan lavozimini suiiste'mol qilish⁸.

Har uchala firibgarlik usulida ham maqsad ya'ni subyektiv tomon bir xil. Ushbu jihat "o'zi yoki boshqa shaxs uchun daromad olishda, boshqalar mulkiga zarar yetkazishni yoki zarar yetkazish xavfi ostiga qo'yish"da ifodalanadi. Obyektiv tomoni esa tegishli normalar bo'yicha bir biridan farqlanadi.

Angliya qonunchiligidagi firibgarlikning yuqorida nomi keltirilgan davlatlar, shuningdek, O'zbekiston qonunchiligidan farqli jihati subyektiv tomon nafaqat mulkni egallashga qaratilgan, balki o'zgarlar mulkiga zarar yetkazishni yoki zarar yetkazish xavf ostiga qo'yishni ham nazarda tutadi.

Firibgarlikning zamonaviy usullar hisoblangan kiberfiribgarlik tushunchasiga umumiy ta'rif keltirilmagan bo'lsada, 1990-yil qabul qilingan "Kompyuterlardan noto'g'ri foydalanish to'g'risida"gi qonun bo'yicha tartibga solinadi. Qonunda kompyuterlardan ruxsat berilmagan holda yashirincha foydalanish jinoyatlari nazarda tutilgan.

Shvetsariya Jinoyat kodeksi ikkinchi bo'limi "Mulkka qarshi jinoyatlar"dan iborat bo'lib, unda firibgarlikning chek va kreditdagi, kompyuterdagi, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy yordam sohasidagi va boshqa bir qator turlari mavjud. Firibgarlik haqida umumiy ma'lumot JK 146-moddasida yoritib berilgan: "shaxslarga yo'lg'on ma'lumot berish yoki ularda noto'g'ri tasavurlarni kuchaytirish orqali qasddan o'zga shaxsni yanglishtirish tufayli o'zi va boshqalar uchun g'ayriqonuniy foyda olish"⁹ 5 yildan ortiq bo'lmagan muddatda ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima to'lanishiga sabab bo'ladi. Bunda firibgarlik noqonuniy foyda olishni ko'zlasa, Shvetsariya JK 146-modda 2-qismiga ko'ra tijoriy foyda olish maqsad qiladi. Tijoriy manfaatdor bo'lish o'g'ir ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi. Yana bir e'tiborga molik jihati firibgarlik moddasining 3-qismida oila va qarindoshlarga nisbatan sodir etiladigan firibgarlik faqatgina ularni shikoyati bo'lsagina javobgarlikka tortiladi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, oila va yaqin qarindoshlarga nisbatan firibgarlik uchun rag'batlantiruvchi norma berilgan, qolgan holatarda esa bunday emas.

JK 147-moddasiga ko'ra kompyuter firibgarligi boshqalarning kompyuterlaridan noto'g'ri, qisman yoki ruxsatsiz foydalanish, ma'lumotlarni qayta ishlashga yoki uzatishga ta'sir etish moliyaviy qiymatliklarga ta'sir o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Fransiya JKga o'xshab Shvetsariya JKda ham maishiy firibgarlikning mehmonxona, restoran va barlardan to'lovsiz foydalanish, xizmat ko'rsatishda to'lovni bajarmaslik kabi bir qancha turlari mavjud hamda bu qilmishlar uchun uch yildan ko'p muddatda ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima tayinlash belgilangan.

Shvetsiya Jinoyat kodeksida ham firibgarlikning obyektiv tomoni sifatida aldash keltirib o'tilgan hamda Shvetsariya JK kabi mayda firibgarlik (maishiy)turi mavjud¹⁰.

⁸Fraud Act 2006, p-3 // https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/35/pdfs/ukpga_20060035_en

⁹https://www.fedlex.admin.ch/eli/cc/54/757_781_799/en

¹⁰<https://www.government.se/contentassets/7a2dcae0787e465e9a2431554b5eab03/the-swedish-criminal-code>.

Ispaniya JKga ko'ra firibgarlikning obyektiv tomoni aldash orqali sodir etiladi. O'zbekiston JKdan farqli ravishda hujjatlarni va imzolarni qalbakilashtirish yoki ularning soxtasi bilan firibgarlik sodir etish og'rishtiruvchi norma sifatida kiritib o'tilgan¹¹. Bizda firibgar tomonidan soxta hujjatlar ishlatilinsa, og'rilashtiruvchi emas, jinoyatni amalga oshirishga ko'maklashuvchi sifatida qaraladi.

Kanada jinoyat qonunchiligida firibgarlik degan tushuncha to'g'ridan to'g'ri keltirib o'tilmagan. Mamlakatda firibgarlik "soxta da'vo", "yolg'on ayyorlik" deb talqin qilinadi. Shunday bo'lsada bu tushunchalar bir xil ma'noni beradi. Kanda Jinoyat kodeksi IX bob (mulkka qarahi jinoyatlar) 361-moddasida firibgarlikka ta'rif berilgan: o'tmishda yoki hozir mavjud bo'lgan haqiqatni yolg'on bilan ifodalab, shaxsni biron bir harakat qilishga undash¹². E'tiborga olish lozim bo'lgan bir jihat ya'ni agarda biron bir narsaning sifatini oshirib maqtash yoki uni qadrsizlantirish, agarda qasddan haqiqatni yolg'on sifatida ko'rsatishga olib kelmasa jinoyat hisoblanmaydi.

Kanada JKda o'zgarlar mulkni firibgarlik yo'li bilan talon-taroj qilishning bir qancha turlari mavjud. Xususan, shartnoma orqali mulkni olib qo'yish, kreditdagi firibgarlik, cheklardagi firibgarlik, oziq-ovqat, ichimlik va turar joyi (maishiy xizmat ko'rsatish) firibgarlik bilan qo'lga kiritish.

Amerika va Yevropa mamlakatlari jinoyat qonunchiligidan so'ng MDH mamlakatlari jinoyat qonunchiligi tahlilini ko'rib chiqsak, MDH mamlakatlari uchun 1996-yil 17-fevralda Jinoyat kodeksi na'munasi qabul qilingan. Ko'plab a'zo mamlakatlar jinoyat qonunchiligi aynan shu modelda olingan. O'zbekiston Respublikasi JK 1994-yil qabul qilingan bo'lsada, MDH mamlakatlari uchun namunaviy JKdan unchalik farq qilmaydi.

MDH JKda firibgarlik tushunchasi XI bo'lim 26-bob (mulka qarshi jinoyatlar) 244-moddada ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra firibgarlik, ya'ni birovning mulkini o'g'irlash yoki aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan birovning mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish unchalik og'ir bo'lmagan jinoyat hisoblanadi¹³. Shuningdek, oila a'zolari va yaqin qarindoshlariga nisbatan sodir etilgan firibgarlik jinoyati jabrlanuvchining arizasi bo'lsagina, javobgarlik masalasi yuzaga keladi.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi 159-moddasidagi firibgarlik uchun berilgan ta'rif aynan MDH JK 244-moddasi bilan bir xil. Rossiya Federatsiyasi jinoyat qonunchiligida ham firibgarlik o'zgarlar mulkini o'g'irlash, mulk huquqini esa aldov va ishonchni suiiste'mol qilish orqali qo'lga kiritishda ifodalanadi. O'zbekiston qonunchiligidan farqli ravishda Rossiya qonunchiligida jabrlanuvchi aybdorga mulkni ixtiyoriy topshirish jihati ko'zda tutilmaydi. Bizda firibgarlik qilmishining asosiy elementi bu ixtiyoriylik hisoblanadi. Rossiyada faqatgina mulkka bo'lgan huquq ixtiyoriy aldov yoki ishonchni suiiste'mol qilish orqali o'tadi.

Rossiya Federatsiya JK firibgarlikning bir qancha turlari keltirib o'tilgan. Bular:

159.1-modda. Kredit firibgarligi

159.2-modda. To'lov firibgarligi

159.3-modda. Elektron to'lov vositalaridan foydalangan holda firibgarlik

159.5-modda. Sug'urta firibgarligi

¹¹Criminal Code p-121-122 //

https://www.mjusticia.gob.es/es/AreaTematica/DocumentacionPublicaciones/Documents/Criminal_Code_2016.

¹²<https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/c-46/page-50.html#h-122229>

¹³Модельный уголовный кодекс,Рекомендательный законодательный акт для Содружества Независимых Государств <https://docs.cntd.ru/document/901781490>

159.6-modda. Kompyuter axboroti sohasida firibgarlik

Kompyuter ma'lumotlari sohasidagi firibgarlik, ya'ni kompyuter ma'lumotlarini kiritish, o'chirish, blokirovka qilish, o'zgartirish yoki saqlash, qayta ishlash yoki boshqa vositalarning ishlashiga xalaqit berish orqali birovning mulkini o'g'irlash yoki birovning mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish¹⁴.

Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksi 190-moddasiga binoan firibgarlik degan aldash va ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini noqonuniy qo'lga kiritish tushuniladi¹⁵. Moldova JKda firibgarlikning boshqa turlari alohida norma sifatida keltirilmagan. Firibgarlikni ikki va undan ortiq shaxslar tomonidan, ko'p miqdorda, xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etish jihatlar qilmishni og'irlashtiruvchi holat sifatida bayon qilingan. Rossiya qonunchiligidan farqli o'laroq, Moldova JKda axborot vositalari yordamida firibgarlik jinoyatini sodir etish mulkka qarshi jinoyat sifatida emas, aksincha axborot borasidagi jinoyatlar turiga kiritilgan. Unga ko'ra axborot firibgarligi deganda: axborotni saqlash, tarqatish, qayta ishlash, axborot tizimini himoya qilish qoidalarini buzish g'ayriqonuniy moddiy naf olish masqadida sodir etish¹⁶.

Armaniston Respublikasi JK bo'yicha firibgarlik yuqoridagi MDH mamalakatlarida nazarda tutilgan ta'rif bilan deyarli bir xil bo'lib, faqatgina bu yerda firibgarlik uchun asos sifatida yetkazilgan mulkning qiymati muhim. Ya'ni JK 21-bob 178-moddaga ko'ra firibgarlik ancha miqdorda¹⁷ sodir etilgan bo'lsa, jinoyat qonunchiligi bilan javobgarlik beglilashga sabab bo'ladi.

Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksi "Mulkka qarshi jinoyatlar" bobi 2-eslatmasiga ko'ra o'zgar mulkini talon-taroj qilish sifatida, o'g'rilik, boqsinchilik va boshqa jinoyatlar bilan bir qatorda firibgarlik qilmishi ham keltirib o'tilgan. JK 209-moddasiga ko'ra firibgarlik aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkni egallab olish yoki mulk huquqini qo'lga kiritishdir¹⁸. Firibgarlikning turidan biri hisoblangan "soliqqa oid firibgarlik" alohida norma sifatida JKga kiritilgan. Kompyuter bilan bog'liq bo'lgan firibgarliklar to'g'ridan to'g'ri ko'rsatib o'tilmagan bo'lsa ham, kodeksning 212-moddasida kompyuter vositalari tomonidan o'zgar mulkini o'g'irlash normasi qayd etilgan.

Qozog'iston Respublikasi JK 190-moddasiga ko'ra firibgarlik qolgan MDH mamalatlari singari aldash va ishonchni suiiste'mol qilish bilan ifodalanadi¹⁹. Qozog'iston JKda o'g'rilik alomatlari bo'lmaganda adlash va ishonchni suiiste'mol qilgan holda o'zgaga mulkiy zarar yetkazish degan jinoiy norma ham mavjud.

Tojikiston Respublikasi JK 247-moddasigi ko'ra firibgarlik aldash va ishonchni suiiste'mol qilish orqali vujudga keladi. Qilmishni jinoiy deb topish uchun talon-taroj qilingan mulk miqdori ahamiyatga ega. Xususan, davlat va jamoa mulkini talon-taroj qilish belgilangan ko'rsatkichdan 10 baravar ko'p bo'lsa, jismoniy shaxslar uchun esa mulkning qiymatidan qat'iy nazar jinoiy javogarlik vujudga keladi²⁰. Bu qoidaga o'xshash jihatini O'zbekiston

¹⁴ Уголовный кодекс Российской Федерации // https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/

¹⁵ https://continent-online.com/Document/?doc_id=30394923#pos=2443;-60

¹⁶ Маймеску С. Информационные преступления и преступления в области электросвязи. Комментарий к Уголовному кодексу Респблика Молдова. Ощая и Особенная част. — Кишинзу, 2010- С-792.

¹⁷ Уголовный Кодекс Республики Армения

<http://www.parliament.am/legislation.php?ID=1349&lang=rus&sel=show#21>

¹⁸ <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900275>

¹⁹ https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252&pos=2892;30#pos=2892;30

²⁰ <http://ncz.tj>

qonunchilgida ham uchratish mumkin. Xususan, agarda korxonalar, tashkilotlar, muassasalar mulkiy mulki o'z miqdorida (bazaviy hisoblashning 30 baravaridan ko'p bo'lmagan) talon-taroj qilinsa, ma'muriy javobgarlik, BHM 30 baravaridan oshsa jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Yuqoridagi holatlardan ko'rish mumkinki, barcha MDH mamlakatlarida firibgarlik tushunchasiga deyarli bir xilda yondashilgan. Jinoyatning obyektiv tomoni sifatida ham aldov va ishonchni suiiste'mol qilish belgilari barcha hamdo'stlik mamlakatlariga xos bo'lgan jihat. Bunday o'xshash qonunchilik normalarining vujudga kelishiga MDH namunaviy Jinoyat kodeksi qabul qilinganligi sabab bo'lgan. Aynan shu modeldan kelib chiqib mamlakatlar o'zlarining firibgarlik uchun jinoiy normalarini ishlab chiqqanlar. Shu bilan birgalikda, ayrim xorijiy mamlakatlari jinoyat qonunchiligini tahlil qilingan holda ularda ba'zi bir farqlarni ko'rish mumkin:

- Firibgarlik jinoyati boshqa turdagi talon-taroj qilmishidan ajratilgan. Mulkiy manfaat olish mumkin bo'lgan barcha sohalarida firibgarlik e'tirof etilgan (bank, moliya, soliq va h.k). Shu nuqtayi nazardan ham firibgarlik juda keng ma'noda talqin qilinadi;
- Firibgarlikning obyektiv tomoni sifatida aksariyat hollarda aldov ko'rsatilgan bo'lib, o'zi yoki uchinchi shaxslar uchun mulkiy foyda olish bilan tavsiflanadi.
- Ishonchni suiiste'mol qilish Ispaniya Jinoyat kodeksida muayyan bir mavqe, mansabga ega bo'lgan holdagina firibgarlikning obyektiv tomoni sifatida ishlatiladi. Soxta hujjatlardan foydalangan holda ishonchni suiiste'mol qilish o'g'irlashtiruvchi norma sifatida belgilangan;
- Shvetsiya, Fransiya, Shvetsariya kabi dalatlarda yo'lkira haqini to'lamaslik, ijara va mehnomxona xizmatlariga to'lovni amalga oshirmaslik kab mayda firibgarlik uchun jinoiy javobgarliklarning mavjudligi;
- MDH mamlakatlarida firibgarlik uchun deyarli bir xil yondashuv mavjud bo'lib, firibgarlikning alohida turlari ham mavjud emas. Faqatgina Rossiya Federatsiyasida firibgarlikning bir nechta ko'rinishlari mavjud;

Ayrim Yevropa mamlakatlarida mavjud bo'lgan ijobiy o'zgarishlarni olgan holda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi hamda Jinoyat kodekslariga mos ravishda 61³- modda va 168¹- moddalarini kiritib "maishiy firibgarlik" normasini joriy etish va "Bank va moliyaviy firibgarlik" bo'yicha JK 168² - moddasini qo'shimcha kiritish taqazo etadi.